



**Hokim qarori bilan buzildi,
sud qarori bilan to'landi**

4-betda o'qing



**Arshni larzaga solmang,
odamlar! Yoxud "ikkinchilar"
haqida**

8-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
2-MAY
SESHANBA

№ 17 (1377)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari




**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/



Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuchga kirdi.
"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni tarixda ilk bor 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi.

Poytaxtimizdagi matbuot markazida Markaziy saylov komissiyasining O'zbekiston Respublikasi referendumining yakuniy natijalari-ga bag'ishlangan majlisi bo'lib o'tdi.



MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI:

Konstitutsiyaviy qonun referendumda umumxalq ovozi bilan qabul qilingan deb topildi

1-MAY kuni Markaziy saylov komissiyasi, a'zolari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda MSK raisi Zayniddin Nizomxo'jayev 2023-yilning 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida ovoz berish yakunlari bo'yicha bayonnomani o'qib eshittirdi.

Qayd etilganidek, referendumda saylovchilar yagona elektron ro'yxatiga 19 million 722 ming 809 nafar ovoz beruvchi fuqaro kiritilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi 55 ta referendum uchastkalarida 307 ming 895 ming fuqaro ro'yxatga kiritilgan. Jami ovoz beruvchilarning 16 million 667 ming 97 nafari ovoz berdi. Referendumga qo'yilgan masala bo'yicha "ha" deb javob berganlar soni 15 million 34 ming 608 nafar, "yo'q" deb javob berganlar soni 1 million 558 ming 817 nafarni tashkil etadi. Shuningdek, 773 ming 672 ta ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topilgan.

"O'zbekiston Respublikasining referendum to'g'risida"gi qonunning 39-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi referendum yakunlari bo'yicha qabul qilingan qarorni referendum o'tkazilgandan keyin ko'pi bilan o'n kun ichida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov

komissiyasining rasmiy veb-saytida va rasmiy manbalarda e'lon qiladi.

Yig'ilishda Markaziy saylov komissiyasining kun tartibidagi masala bo'yicha qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, referendumda ovoz beruvchilarning 84,51 foizi ishtirok etgani inobatga olinib, 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha referendum O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "O'zbekiston Respublikasining referendum to'g'risida"gi qonunga muvofiq haqiqiy deb topildi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni referendumda umumxalq ovozi bilan qabul qilingan deb hisoblandi.

Qayd etilganidek, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni mazkur qaror rasmiy e'lon qilinganidan keyin kuchga kirgan deb hisoblanadi. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kunning o'zida uning ijrosini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

**Muhtarama KOMILOVA,
O'ZA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI
matni bilan quyidagi
havola orqali tanishishingiz
mumkin:**



2 JARAYON



JORIY yilning 17–18 may kunlari
Toshkent shahrida “Tashkent Law
Spring” III Xalqaro yuridik forumi
o‘tkaziladi.

XALQARO YURIDIK FORUMI

TOSHKENT YANA HUQUQ BAHORIGA CHORLAYDI!

Adliya vazirligi huzurida ikki yilda bir marta o‘tkazilayotgan forumning bu galgi asosiy mavzusi – “Fundamental huquqlar – abadiy qadriyatlar” deb nomlanadi. XXI asrda sivilizatsiya asoslari o‘zgariganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Siyosat, huquq, axloq va madaniyat davom etayotgan texnologik taraqqiyot ortida o‘zgarimoq-

da. Insoniyat zamonaviy voqelikka moslashmoqda. Shu munosabat bilan fundamental huquqlar klassik ma’no-da eng oliy qadriyat, turli masalalarda asosiy yo‘riqnoma bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, kundalik hayotda fundamental huquqlarning namoyon bo‘lishi o‘zgartirilib, yangi kombinatsiyalar bilan to‘ldirilmoqda.

Qonun va huquq tizimi tez o‘zgaruvchan voqelikka moslashishga ulgurmayapti. Amaliyot nazariyadan oldinroq bo‘lib, qonun doimiy o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishini ta’minlash uchun yuridik, ekspert va ilmiy hamjamiyatlarning kelishilgan harakatlari talab qiladi.

Xatarlarni minimallashtirish uchun xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yorlarida e’lon qilingan asosiy tamoyillarga va texnologik va huquqiy o‘zgarishlarning boshida turgan mamlakatlar o‘rtasidagi muloqotga e’tibor qaratish muhimdir.

Forumning maqsadi xalqaro, xorijiy va mahalliy ekspertlar tomonidan fundamental huquqlar prizmasi orqali zamonaviy huquqiy tendensiyalarni muhokama qilish uchun ochiq platforma yaratishdan iborat.

Ishtirokchilar zamonamizning dolzarb huquqiy masalalarini muhokama qilish va ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda ularni maqbul hal etish yuzasidan fikr almashish uchun katta imkoniyatga ega bo‘ladi.

Forum huquqsohasidagi zamonaviy ilm-fan yutuqlarini O‘zbekistonda va jahonda ommalashtirish-

ga ko‘maklashish maqsadida tashkil etilgan. Tadbir doirasida ilg‘or xalqaro va xorijiy tajriba hamda ilmiy tadqiqot natijalarini o‘rganish qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha turli g‘oyalarni ko‘rib chiqish imkonini beradi. Natijada tadbir tashkilotchilari jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlash, shuningdek, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy siyosatni izchil takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishni rejalashtirgan.

O‘z navbatida “Tashkent Law Spring” yuridik forumi xalqaro xorijiy ishtirokchilari O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar haqida xolis ma’lumot olishlari mumkin bo‘ladi.


Forum an’anaviy tarzda xorijiy hamkorlar bilan xalqaro huquqiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash uchun platforma vazifasini o‘taydi. Ishtirokchilar qiziqarli tadbirlarda, jumladan, muhokama sessiyalari, davra suhbatlari, mahorat darslari, xalqaro va milliy ekspertlarning taqdimotlarida ishtirok etishlari mumkin.



“Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Hukumat qarori (170-son, 29.04.2023 y.) qabul qilindi.



“TEXNIKALAR TEXNIK KO‘RIGI” AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMI ISHLAB CHIQILADI



Qarorga ko‘ra, 2023-yil 1-iyulgacha “Texnikalar texnik ko‘rigi” avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqiladi.

2023-yil 1-maydan jismoniy va yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalari majburiy yillik texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

2023-yil 1-sentabrdan yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlar jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish faoli-

yati bilan shug‘ullanishi mumkin.

2023-yil 1-avgustdan qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini ishlab chiqaruvchi yoki maxsus savdo tashkilotlarida xaridorlarga sotilgan yangi texnikalar uchun “Hisob-ma’lumotnoma” berish amaliyoti joriy etiladi.

2023-yil 1-sentabrdan qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalariga texnik ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risida talon berish amaliyoti bekor qilinadi (xorijiy davlatlarga ishga yuboriladigan texnikalardan tashqari).

Shuningdek, eski namunadagi texnik pasport, texnik guvohnoma, davlat raqami belgisi va traktorchi-mashinist guvohnomasini majburiy tartibda almashtirishning yakuniy muddati 2023-yil 31-avgust etib belgilandi.

Qaror bilan Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini davlat ro‘yxatidan va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti tasdiqlandi.

Reglamentga ko‘ra, texnikalar Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Texnikalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari Inspeksiyasi, davlat xizmatlari markazlari va YalDXP (my.gov.uz) orqali texnika egasi yoki uning vakili so‘rovnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Texnikalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yoki qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda:

- ☑ texnik pasport beriladigan qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalari hamda o‘ziyurar mashinalarni davlat ro‘yxatidan yoki qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun – BHMning 20 foizi (66 000 so‘m) miqdorida;
- ☑ texnik guvohnoma beriladigan qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish mashinalari, agregatlari va asbob-uskunalarini davlat ro‘yxatidan yoki qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun – BHMning 18 foizi (59 400 so‘m) miqdorida yig‘im undiriladi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishni rad etgan mansabdorlarga qanday javobgarlik bor?



QONUNCHILIKKA quyidagi harakatlar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish hisoblanadi:

- ➔ murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish;
- ➔ murojaatlarni ko‘rib chiqish mudдатlarini uzrli sabablarsiz buzish;
- ➔ murojaatlarga yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik;
- ➔ murojaatlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga zid qaror qabul qilish;
- ➔ jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta’minlamaganlik.

Ushbu harakatlarni sodir etish mansabdor shaxslarga BHMning 1 baravari-dan 3 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

1 MAYDAN NIMALAR O'ZGARDI?




ISH HAQI OSHDI

PREZIDENT farmoniga ko'ra, 1-maydan budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 7 foizga oshirildi. Shuningdek, O'zbekiston hududida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori – oyiga 980 ming so'm, bazaviy hisoblash miqdori – oyiga 330 ming so'm etib belgilandi.

... 50 FOIZ CHEGIRMA

Tegishli qonunga muvofiq ma'muriy jarimalar 15 kun ichida to'laganlik uchun chegirma miqdori oshirildi. Bunda huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun ichida jarima miqdorining 50 foizini yoki 30 kun ichida 70 foizini ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinadi. Mazkur tartib sud qaroriga asosan qo'llanadigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etiladi.



IMTIYOZLI TRANSPORT KARTALARI

Prezident qaroriga muvofiq shahar yo'lovchi transportida ayrim toifadagi fuqarolarga bepul yurish huquqini beruvchi imtiyozli transport kartalarini berish respublikaning barcha shaharlarida amalga oshiriladi.

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I QAYTARILADI

Prezident qaroriga asosan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan jismoniy shaxslarga ayrim turdagi tovarlar xaridi uchun qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib beriladi. Ya'ni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan jismoniy shaxslar chakana savdo ob'ektlarida tuxum, o'simlik yog'i hamda mol, qo'y, parranda go'shtlari xaridini amalga oshirganda

va ushbu xaridni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida xarid chekining fiskal belgisini matritsali shtrix kod (QR-kod) yordamida skanerlash orqali ro'yxatdan o'tkazganda, ularning bank kartalariga har oy yakuni bilan xarid summasining 1 foizi miqdoridagi to'lov o'rniga, xarid summasida to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi respublika budjetidan qaytariladi.



YANGI "DOM" LARNING TOMIGA QUYOSH PANELLARI O'RNATISH MAJBURIY BO'LADI

Prezidentning 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarini joriy etishni jadal-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 1-maydan boshlab foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uylar tomlari bo'sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o'rnatish talabi joriy qilindi.

Shuningdek, yangi tashkil etiladigan issiqxona xo'jaliklari hamda sement, g'isht va ohak mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga tabiiy gaz tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar berilishi taqiqlanadi. Respublikadagi barcha yoqilg'i (avtobenzin, suyuqlashtirilgan va siqilgan gaz) quyish shoxobchalarining maishiy-texnik ehtiyojlari va hududini yoritish uchun elektr energiyasi ta'minotining kamida 50 foizi ushbu ob'ektlarda o'rnatiladigan quyosh panellari orqali qoplanishi talab etiladi.



SHIFOXONALARDA BEPUL OVQAT BERILADI

Prezidentning tegishli qarori bilan nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashda qator tartiblar o'rnatilmoqda. Jumladan, tibbiyot muassasalarida davolanayotgan no-

gironligi bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilish uchun shu muassasada uning otasi yoki onasiga (ularning o'rnini bosuvchi shaxsga) yoxud oilaning bolani bevosita parvarishlayotgan boshqa a'zosiga nogironligi bo'lgan bolaning yonida birga bo'lish uchun sharoit yaratiladi.

Shuningdek, statsionar tibbiyot muassasalarida nogironligi bo'lgan bolani parvarishlayotgan shaxsga mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga g'amxo'rlik qiluvchi shaxslar (ota-onasi va boshqalar) uchun davolash davrida davlat statsionar tibbiyot muassasalarida bepul ovqatlanish yo'lga qo'yiladi.



HALOK BO'LGAN HARBIIY XIZMATCHINING YAQINLARI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLANADI

Prezidentning tegishli farmoni bilan vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo'lganligi oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning oila a'zolari hamda ularning qaramog'idagi shaxslarga qator imtiyozlar berilmoqda.

Jumladan:

- ② oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi pensiyani hisoblab chiqish uchun olinadigan pul ta'minotining (ish haqining) 50 foizi miqdorida belgilanadi;
- ③ oila a'zolari (ota-onasi, turmush o'rtog'i, 23 yoshga to'lmagan farzandlari) daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etiladi;
- ④ belgilangan tartibda turar joyga muhtoj deb tan olingan taqdirda, turar joy bilan birinchi navbatdagi tartibda ta'minlanadi;

④ qonunchilikda belgilangan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) turar joy sotib olish (qurish) uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari berish tartibiga muvofiq uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlarini olish huquqi saqlab qolinadi;

⑤ halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) yangi nikohga kirmagan turmush o'rtog'i va (yoki) harbiy xizmatchining (xodimning) qaramog'ida bo'lgan ota-onasidan biriga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga turar joyini ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasini to'lash tartibi tatbiq etiladi (mulkada turar joy bo'lmagan taqdirda).



BANK HISOBVARAG'INI MASOFADAN TURIB OCHISHGA RUXSAT ETILADI

Prezidentning 2022-yil 10-noyabrda qabul qilingan "Hisobot taqdim etish va arxiv hujjatlarini saqlash tartib-taomillarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan joriy yilning 1 mayidan:

- ① tijorat banklariga ariza beruvchini masofadan turib identifikatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lganda, ta'sischi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga bank hisobvarag'ini masofadan turib ochishga;
- ② yuridik shaxslarga elektr energiyasi, tabiiy gaz, issiq suv, ichimlik suv ta'minoti, oqova suv va telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnomalarni, ularning iste'moli to'g'risidagi hisobotlarni va kelgusi davr uchun shartnomaviy miqdorlar to'g'risidagi bir marta talik va davriy hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirishga ruxsat berilmoqda.

Maftuna BEGMATOVA,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



BUXORO

BUXORO tumanidagi 2-sonli umumta'lim maktabida uyda ta'lim dasturi asosida o'quvchilarga dars berayotgan o'qituvchilarga yo'l haqi kompensatsiya puli to'lanishi bilan bog'liq muammo yuzaga kelgan. Fuqaro Sh. Sa'dullayeva va boshqalarning bu haqdagi murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

YO'L HAQI
TO'LANMAGAN

Mazkur holat o'rganilganda, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2023-yil 7-martdagi javob xati va unga ilova qilingan hujjatlar asosida 2-sonli umumta'lim maktabining 2021-2022-o'quv yili davomida uyda ta'lim berayotgan o'qituvchilari – N. Zaripova, G. Sa'dullayeva, O. Arabova, I. Tosheva, G. Bahronova, A. Primkulova, Sh. Sa'dullayeva va Z. Abdulhaqovalarga jami 2 million 116 ming 52 so'm yo'l haqi kompensatsiyasi to'lab berilmagan ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 5-martda ro'yxatdan o'tkazilgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, Xalq ta'limi hamda Moliya vazirliklarining "Uyda ijtimoiy yordam xizmati xodimlari hamda nogiron bolalarni uyda o'qitganlik uchun umumta'lim maktablarining o'qituvchilariga yo'l haqi kompensatsiyasi tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va Prezidentimizning 2019-yil 21-maydagi "Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonida maktab o'qituvchilariga – o'qitilayotgan o'quvchining maktabdan yashash joyigacha kamida 1,5 kilometr masofa bo'lganda uyda o'qitilayotgan bir nafar o'quvchi uchun yo'l-kira xarajatlari qiymatini qoplash va shu kabi ayrim kompensatsiyalar miqdorlarini aniqlashda bazaviy hisoblash miqdori qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.


Bir nafar uyda o'qitilayotgan o'quvchiga birlashtirilgan bir nechta o'qituvchilarga kompensatsiya ularning har oyda amalda o'tkazadigan o'quv soatlari ulushidan kelib chiqqan holda uyda o'qitilayotganlarning o'quv rejasidagi o'quv soatlarining umumiy miqdoriga mutanosib ravishda belgilanadi.

O'rganish natijalariga ko'ra, Buxoro tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Sh. Sadullayev nomiga yuqoridagi qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish va o'qituvchilarga yo'l haqi kompensatsiya pulini to'lash yuzasidan taqdimnoma kiritilib, muammo ijobiy hal etildi.

Abdurahimxo'ja BAFAYEV,
Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i



TOSHKENT



FUQARO D. Alimuxamedov javobgar Qibray tuman va qo'shimcha javobgar Yashnobod tuman hokimliklari tomonidan kompensatsiya to'lovlari to'lanmayotganidan norozi bo'lib, Mirobod tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

Hokim qarori
bilan buzildi,
sud qarori bilan
to'landi

Mazkur murojaat tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganilganda, D. Alimuxamedovga xususiy mulk asosida 2018-yil 18-iyuldagi uy-joy oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq tegishli bo'lgan 0,0409 kv.m.dan iborat Yashnobod (Qibray) tuman, "Tovkent tepa" mahallasi, "Murabbiylar" ko'chasi, 197A-uyda joylashgan uy-joy davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgani aniqlandi.

Toshkent viloyat hokimining 2018-yil 10-fevraldagi va Qibray tuman hokimining 2018-yil 2-fevraldagi qarorlariga asosan Qibray tumanidagi Tuzel va Yangiobod qishlog'idagi bir qator yer maydoni davlat xazira yerlari tarkibiga o'tkazilganini, Qibray tumani hokimining 2019-yil 14-martdagi 508-sonli qarori bilan Qibray tumanidagi "Tovkent tepa", "Tashisti", "Jarboshi" va "Ibrat" mahallalari hududlarida yashovchi fuqarolarning turar-joylari hamda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan noturur bino in-

shootlari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun zarur bo'lganligi sababli, komissiya tomonidan shakllantirilgan ro'yxat asosida mulkdorlar hisobidan buzishga ruxsat berilgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, baholash hujjatlariga ko'ra, fuqaro D. Alimuxamedovga o'rni qoplanmagan kompensatsiya miqdori 41 million 894 ming 677 so'mni tashkil etgan.

O'rganish natijalariga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan D. Alimuxamedovning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga to'lab berilmagan kompensatsiya pulini undirish haqida da'vo ariza kiritildi.

Da'vo ariza sud tomonidan qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan fuqaro D. Alimuxamedovga salkam 42 million so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

Amir SHAMSIQULOV,
Mirobod tuman adliya bo'limi boshlig'i



SIRDARYO

MAS'ULLARGA
HAYFSAN...

SIRDARYO viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi 12-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom ijrosi yuzasidan monitoring o'tkazildi.

Monitoring jarayonida Tabiat resurslari vazirligi Sirdaryo viloyat boshqarmasi tomonidan 2020-2022-yillar mobaynida 65 nafar xodimga 241 million 600 ming 808,7 so'm miqdordagi qo'shimcha ustama puli to'lab berilmaganini aniqlandi.

Vaholanki, yuqorida qayd etilgan Nizomning 7-bandida budjet tashkilotlari xodimlariga mehnat to'g'risidagi qonunlarga muvofiq ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida uzoq muddat ishlaganlik uchun lavozim maoshiga foiz miqdorida har chorakda belgilangan miqdordlarda ustama to'lanishi belgilangan.


Shuningdek, Mehnat kodeksining 154-moddasiga ko'ra, ish beruvchi moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar xodimga bajargan ish uchun haqni belgilangan mehnat haqi shartlariga muvofiq to'lashga majburligi hamda ushbu kodeksning 161-moddasida ko'rsatilgan muddatlarda to'lashi shartligi belgilangan.

Monitoring natijalariga ko'ra, ushbu qonunbuzilishni bartaraf etish yuzasidan Tabiat resurslari vazirligi Sirdaryo viloyat boshqarmasiga taqdimnoma kiritildi.

Adliya aralashuvi bilan ekolog xodimlarining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida uzoq muddat ishlaganlik uchun lavozim maoshiga foiz miqdorida har chorakda oylik ustama puli to'lab berilishi ta'minlandi.

Xodimlarning huquq va manfaatlari buzilishiga yo'l qo'ygani, o'z vazifasiga mas'uliyatsizlik va sovuqqonlik bilan yondashgan boshqarma mas'ul xodimga nisbatan hayfsan intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.


To'liq TURDIBEKOV,
Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



NAVOIY

HAYOT baxtli va baxtsiz tasodiflarga to'la. Navoiy shahar markaziy shifoxonasining reanimatsiya bo'limi hamshirasi M. Ismoilova 2022-yilning aprel oyida baxtsiz hodisa tufayli oyog'i sinib, vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qoldi. Oradan 6 oy o'tib, ishga chiqdi.

Tanasi boshqa dard bilmas...



Biroq, unga kasallik davri uchun 60 foiz miqdorida "bolnichniy" to'lab berishdi, xolos. Eng qizig'i, M. Ismoilova Navoiy shahar obodonlashtirish boshqarmasida ham 0,5 stavkada hamshira bo'lib ishlab kelgan. Ikkinchi idora esa unga kasallik varaqasi uchun umuman haq to'lamasligini bildirgan. Chunki, juda ko'pchilik davlat va nodavlat idoralari mutasaddi-

lari vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi faqat asosiy ish joyidan to'lanishi lozim deb hisoblaydi. Aslida esa bunday emas.


Kasallik varaqasiga to'lanadigan nafaqa to'lovi kamligidan arz qilgan fuqaro murojaati Navoiy shahar adliya bo'limi ish yurituviga olindi.

Qonunchiligimizda Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan "Dav-

lat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to'lanishi shart. Navoiy shahar tibbiyot birlashmasining bergan ma'lumotiga ko'ra, M. Ismoilovanning mehnat staji 22 yildan ortiq. Adliya bo'limi mazkur holat yuzasidan mutasaddi idora rahbarlariga yo'l qo'yilgan qonunbuzilishni bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritdi.

Shahar tibbiyot birlashmasi tomonidan hamshira M. Ismoilovaga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik davri uchun ish haqining 80 foizi miqdorida 2 million 635 ming so'm, shahar obodonlashtirish boshqarmasidan esa kasallik varaqasi uchun 6 million 297 ming so'm miqdorida nafaqa puli to'lab berildi.


Azamat XOLMO'MINOV,
Navoiy shahar adliya bo'limi boshlig'i



SURXONDARYO

SARIOSIYO tuman adliya bo'limi tomonidan tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kutubxonachi lavozimida faoliyat yuritayotgan fuqarolarning maktabda kutubxonachilarga to'lanishi shart bo'lgan ustama puli to'lanmasdan kelinayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati o'rganildi. O'rganish davomida tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan kutubxonachilarga haqiqatan ham qo'shimcha ravishda ustama haq to'lanmasdan kelingani aniqlandi.


KUTUBXONACHILARGA USTAMA UNDIRIB BERILDI



Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-sentyabrda "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash shartlarini tartibga solish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan ilovada "Xalq ta'limi muassasalarining qo'shimcha haq to'lanadigan xodimlarning lavozimlari ro'yxati, qo'shimcha haqning turlari va miqdorlari"ning 23-bandida - maktablar, barcha tur va nomdagi maktab-internatlar, o'rta maxsus va hunar - texnika o'quv yurtlari kutubxonachilariga yoki boshqa xodimlarga darsliklarning kutubxona fondi bilan shug'ullanganliklari uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,6 foizi miqdorida qo'shimcha haq to'lanadi. Keyingi har bir 1 ming 500 nusxa darsliklar uchun 5 foiz, biroq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10,6 foizidan ko'p bo'lmagan qo'shimcha haq to'lanadi, - deb belgilangan.

Shunga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan tumandagi maktablarda ishlab kelayotgan 94 nafar kutubxonachining manfaatlarini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Sariosiyo tumanlararo sudiga da'vo arizalari kiritildi va sud qaroriga ko'ra 94 nafar kutubxonachining 173 million so'm qo'shimcha ustama puli undirib berildi.

Latif RAYIMOV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi boshlig'i



BUXORO

BUXORO viloyat adliya boshqarmasi tomonidan G'ijduvon tumanidagi umumiy o'rta ta'lim maktabi informatika o'qituvchisining "Google for education" sertifikatini uchun to'lanishi lozim bo'lgan ustama to'lovlari to'lanmayotganiga oid murojaati o'rganib chiqildi.

O'QITUVCHILAR HUQUQI HIMOYA QILINDI




O'rganish jarayonida viloyatdagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarining informatika o'qituvchilariga xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lganligi uchun to'lovlar to'lanmayotganligi aniqlandi.

Vaholanki, Prezidentning 2022-yil 19-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni 9-bandiga xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga ularning tarifi stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida ustama to'lanishi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarga asosan adliya boshqarmasi tomonidan viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga taqdimnoma kiritildi. Aniqlangan qonunbuzilishni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnoma ijrosi ta'minlanib, viloyatdagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan informatika o'qituvchilariga 1 milliard 141 million 577 ming 749 so'm miqdoridagi to'lov undirilishi ta'minlandi.

Tuyg'un AZIMOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



QORAQALPOG'ISTON



TIBBIYOT XODIMLARINING MUROJAATI O'RGANILDI

ELLIKQALA tumanida yashovchi fuqarolar X.D. va S.D.ning tuman adliya bo'limiga o'zlari ishlab kelayotgan tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan ko'p yillik ishlagan mehnat stajlari uchun qo'shimcha ustama to'lovi to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib yozgan murojaati o'rganib chiqildi.

O'rganish jarayonida fuqaro X.D. ning umumiy ish staji 15 yildan ortiq davrni tashkil qilishi, qayta hisob-kitob qilinish, jami 15 million 131 ming 114 so'm, shuningdek fuqaro S.D. ning umumiy ish staji 10 yildan ortiq davrni tashkil qilishi, qayta hisob-kitob qilinish, jami 2 million 790 ming 694 so'm ustama to'lovi to'lab berilmaganini aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrda "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ilova qilingan nizomning 25-bandida vrachlarga, o'rta va kichik tibbiyot xodimlariga, shuningdek, sog'liqni saqlash barcha muassasalari farmatsevtika xodimlariga uzluksiz ish staji bo'yicha ustama to'lovlari to'lanishi belgilangan.

O'rganish yakuni bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudiga fuqarolar X.D. va S.D.larning manfaatini ko'zlab qonunchilikda o'rnatilgan tartibda umumiy miqdori 17 million 921 ming 808 so'm ustama to'lovi undirish bo'yicha da'vo arizasi kiritilib, sudning 2023-yil 17-martdagi hal qiluv qarori bilan javobgar tuman tibbiyot birlashmasidan ustama to'lovlari undirish belgilandi.

Shokir ISMAILOV,
Ellikqal'a tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi

6 SUD ZALIDAN

Ularning aksariyatida huquqini bilmasdan hamyonidan ayrilayotgan, firibgarlarning tuzog'iga ilingan sodda fuqarolarni ko'rish mumkin. Sudlanuvchi S. Mansurova (ismi-shariflar o'zgartirilgan) ustasi farang firibgarlardan. U fuqaro F. Odilovani Navoiy shahar hokimligiga qarashli yotoqxonalardan biriga joylashish niyatida ekanligidan xabardor bo'lgan holda uning ishonchiga kirib, mansabdor shaxslarga pora berishga dalolatchilik qilish yo'li bilan o'zganing mulkini qo'lga kiritishga ahd qilgan. U F. Odilovaga Navoiy shahar hokimligida ishlovchi tanishlari orqali 12 million so'm evaziga shahardagi Ibn Sino ko'chasida joylashgan yotoqxonadan joy olib berishni va'da qilgan. Savdo markazi binosi ro'parasida oldindan kelishilgan pulning 8 million so'mini olayotgan vaqtda huquq tartibot idoralari xodimlari tomonidan ash-yoyiy dalillar bilan ushlangan. Va tegishli jazo tayinlandi.

OLG'IR OPERATORNING OMADI KELMADI

Ba'zi zamondoshlarimizga ishonuvchanligi, go'lligi, huquqiy savodxonlik darajasi pastligi pand berayotganiga guvohimiz. Sudlanuvchi S. Aliyeva "Evr navoiy evr" mas'uliyati cheklangan jamiyatida operator vazifasida ishlab kelib, 2022-yilning sentabr oyida tanishi Z. Ravshanova o'qishini o'zi tahsil olayotgan Tojikiston Respublikasi Panjikent pedagogika institutidan



YOTOQXONA olib beraman deb...

KEYINGI yillarda firibgarlikni kasb qilib bironing molini osongina qo'lga kiritishning hadisini olganlar ko'paydi. Ayniqsa, boshpanaga ega bo'lish ilinjida yurgan odamlarni aldash oson bo'lib qoldi. Jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudida o'tgan 2022-yil davomida aynan ana shu toifadagi firibgarlik va pora berishga suiqasd qilishga oid 10 dan ortiq ish ko'rib chiqildi.

O'zbekistondagi nodavlat oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish niyatida ekanligini bilib, oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlash-tirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi qarori talablari asosida amalga oshirilishini bila turib, xizmat mavqeidan foydalanib, al-

dash yoki ishonchni suistemol qilish yo'li bilan uning mulkini qo'lga kiritmoqchi bo'lgan. Z. Ravshanovaga "Evr navoiy evr" MChJ orqali o'qishini Panjikent pedagogika institutidan Navoiydagi "Navoiy innovatsiyalar instituti" nodavlat oliy ta'lim muassasasiga ko'chirib berishni va'da qilib, undan 10 million so'm pul talab qilgan. Navoiy

shahridagi "Shodlik" savdo markazida joylashgan "Evr navoiy evr" MChJ binosida 10 million so'm pulni MChJning hisob raqamiga ko'chirish uchun mazkur MChJ hisob raqami yozilgan varaqasini Z. Ravshanovaga bergan vaqtda ash-yoyiy dalil bilan ushlanib, jinoyatiga yarasha jazo tayinlandi.

SUD ZALIGA "KVOTA" OLDI

Sudlanuvchi K. Sharipov muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudining hukmiga ko'ra, Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybli deb topilib, tegishli jazo tayinlangan bo'lsa-da, bundan xulosa chiqarmasdan, sudlanganlik muddati davomida fuqaro N. Xalilova bilan tanishib, uning ishga kirish niyatidan foydalanib, unga tanishlari orqali Navoiy shahar aholi bandligiga ko'maklashish markazidan kvota olib berishni va Navoiy kon metallurgiya kombinatiga qarashli laboratoriyalardan biriga ishga kiritib qo'yishga va'da berib, 400 AQSh dollari miqdoridagi pulni olgan vaqtda tegishli huquq-tartibot organlari xodimlari tomonidan ash-yoyiy dalillar bilan qo'lga olingan.

Jinoyatga jazo muqarrar. Tekin daromad orttirmoqchi bo'lgan "ish-bilarmon" ishga kvota olib beraman deb, o'ziga sud zaliga "kvota" oldi.

Dilobar PARDAYEVA,

jinoiyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudi sudyasi,
Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

M. Mahmudova S. Xolmatovga (ism-familiyalar o'zgartirilgan) imtiyozli kredit asosida Sirg'ali tumanida yangi qurilayotgan uy-joydan olishi uchun "Concord Premium Service" MChJda hech qanday lavozimda ishlamagan bo'lsa-da, unga ushbu jamiyatda ishlayotgani va ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomani qalbaki-lashtirib bergan.

Ma'lumotnoma qimmatga tushdi



Sanjar Malohatdan olgan bu ma'lumotnomani qalbaki ekanligini bila turib, uni imtiyozli kredit olish uchun "Ipoteka bank" ATIB Olmazor filialiga taqdim qilgan va mazkur qalbaki hujjat asosida uning nomiga kredit shartnomasi rasmiylashtirilib, Sirg'ali tumanidagi yangi qurilgan uylardan birini olishga erishgan.

Sudlanuvchi M. Mahmudova sud majlisida aybiga to'liq iqror bo'lib, u Uchtepa tumanida joylashgan "Concord Premium Service" MChJda 2017 yil aprel oyidan norasmiy buxgalter bo'lib ishlaganini, "Ipoteka bank" ATIB Olmazor filialida S. Xolmatov bilan tanishib qolganini, shunda Sanjar unga bankdan

kredit rasmiylashtirib olish niyati borligidan xabar topgani, unga yordam berish maqsadida Sanjarni o'zi ishlaydigan MChJga ishga qabul qilib, ma'lumotnoma qilib berishini va uning fuqarolik pasportidan nusxa olib, unga MChJda ishlaydi degan va "olgan" ish haqi to'g'risidagi soxta ma'lumotnoma tayyorlab berganini tan oladi. Ma'lumotnomadagi jamiyat direktori imzosini qalbaki-lashtirib, Sanjarga berib yuborganini, qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymonligini bildirdi.

Sudlanuvchi S. Xolmatov ham sud majlisida aybiga to'liq iqror bo'lib, oilasi bilan boshpanaga muhtoj bo'lgani sababli "Ipoteka

bank" ATIB Olmazor filialiga borib kreditga uy olish uchun murojaat qilganida, ish joyidan ma'lumotnomasi olib kelishini aytishganini, uni doimiy ish joyi bo'lmagani sababli boshi qotib turganida M. Mahmudova bilan tanishib qolganini, suhbat davomida kredit muammosi borligini aytganda, Malohat unga bu borada yordam berishi mumkinligini, faqat oylik maoshini o'zi olishini, ishga kelmasa ham bo'lishini aytganligini, shunda u uyga muhtojligi uchun Malohatning taklifiga rozi bo'lib, qilgan ishidan pushaymonligini bildirdi.

Qalbaki ma'lumotnoma qimmatga tushdi. Sud sudlanuvchi M. Mahmudovaga nisbatan jazo tayinlashda uning shaxsini, yoshini, aybiga to'liq iqrorligini, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini, oilaviy ahvolini, qaramog'ida uch nafar voyaga yetmagan farzandi borligini, ulardan biri uch yoshga bo'lmaganini, muqaddam sudlanganini inobatga olib, bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida jarima jazosi tayinlashni lozim topdi.

S. Xolmatovga esa bir yil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi. Soxta "spravka" operatsiyasi shu tariqa yakun topdi.

Mirziyod ABIDOV,

jinoiyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudi sudyasi

E'LONLAR

Advokatlar palatasi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 3-sonli majlisi qaroriga asosan, advokat Jurayev Shakarbek Sarimovovichga Namangan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 04.05.2021-yilda berilgan NA 000214-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi tiklandi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 26-apreldagi 70-um-sonli buyrug'i bilan, Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 23-martdagi hal qiluv qaroriga asosan, advokat Rajabov Ruslan Bahodirovichga 2019-yil 22-yanvarda berilgan GZ 000102-sonli advokatlik litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi 2 (ikki) oy muddatga ya'ni 2023-yil 25-apreldan 2023-yil 25-iyungacha qadar to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 14-apreldagi 5-sonli qarori asosida adliya boshqarmasining 2023-yil 18-apreldagi 84-um-son buyrug'i bilan advokat Turg'unova Nazokatxon Sobitallyevnaning advokatlik maqomi tiklandi.

"Advokatura to'g'risida"gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi 807-son qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan quyidagi shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

1. "ABSOLVO" advokatlik firmasi advokati Urdayev Sabit Saitovich litsenziya sanasi va raqami SI 000140 29.06.2022-yil adliya boshqarmasining 2023-yil 18-apreldagi 51-um-son buyrug'i;
2. "ABSOLVO" advokatlik firmasi advokati Davronov Otabek Djanibekovich litsenziya sanasi va raqami SI 000036 27.12.2018-yil adliya boshqarmasining 2023-yil 18-apreldagi 51-um-son buyrug'i;
3. "RAHMATILLA-QALQON" advokatlik firmasi advokati Pulatova Ra'no Yakubovna litsenziya sanasi va raqami SI 000053 27.12.2018-yil adliya boshqarmasining 2023-yil 18-apreldagi 51-um-son buyrug'i.



RIVOJLANGAN demokratik jamiyat fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni davlat kuchiga tayanmay hal etishni hakamlik sudlari orqali amalga oshirishga qodir.

“Hakam ikki nizolashuvchi orasida hukm ijro etmaydi, balki ularni kelishtirib qo'yadi”



Hakamlik sudlari taraflarni eshitish va yarashtirish amallaridan foydalangan holda nizolarni hal etadigan ushbu nodavlat sud iqtisodiy va fuqarolik nizolarini ko'radi va vakolatli sudlardan ko'ra ko'proq qulayliklarga ega.

Birinchidan, uning ijtimoiy ahamiyati katta. Ularni qo'llash taraflar uchun salbiy oqibat keltirmaydi, aksincha, taraflarning bir-birlariga ishonch munosabatini saqlaydi va ular murosa yo'li topilgani sababli amaliy hamkorlikni davom ettiradi. Ikkinchidan, taraflar hakamlik bitimini tuzayotganda hakamlik muhokamasi o'tkaziladigan joy va til, hakamlik muhokamasining qo'llaniladigan qoidalar, nizoni ko'rib chiqish muddati haqidagi ma'lumotlarni ham taraflar o'zlari kelishgan holda belgilaydi.

Uchinchidan, hakamlik sudida taraflar sudyalarni ixtiyoridan kelib chiqib belgilangan tartibda saylaydi.

To'rtinchidan, nizoni hakamlik sudida hal qilish bilan bog'liq xarajatlar

hakamlik sudlari qoidalariga muvofiq hakamlik yig'imi undiriladi. Hakamlik yig'imi da'vo summasining bir foizigacha undiriladi, vakolatli sudlarda esa bu da'vo bahosining to'rt foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

Demak hakamlik sudlarining vakolatli sudlardan afzalliklarini vaqt, moliyaviy qulaylik, nisbatan erkinlik, hakamlik sudlari ma'lumotlarining oshkor qilinmasligida ko'rish mumkin. Ya'ni hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni hakamlik muhokamasi taraflari yoki ularning huquqiy vorislari roziligisiz oshkor qilishga haqli emas. Hakamlik muhokamasi ma'lumotlarining oshkor qilinmasligi qonun bilan kafolatlangan.

Hakamlik sudlarining bir qator afzalliklariga qaramay hozirgi kunda mamlakatimizda 312 nafar hakamlik sudyasi mavjud xolos. Tadbirkorlik sub'ektlari esa bir milliondan ortiq. Taqqoslab qaraganda, farq ancha kattaligini ko'rish mumkin. Bu holatda talab yoki taklif yo'qmi, degan savol paydo bo'ladi. Bu aholining huquqiy savodxonligiga ham bog'liq. Aholi talabi yuqori bo'lsa, taklif ham shunga yarasha ortib borishi aniq.

Hakamlik sudining yana bir farqi shundaki, ushbu sudning hal qiluv qarorini ijro etish ixtiyoriy. Bundan taraflar xohlasa bajaradi, xohlamasa bajarmaydi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori qarorda belgilangan muddatda ixtiyoriy ijro etilmagan bo'lsa, u majburiy ijro etilishi kerak. Bu foydasiga hal qiluv qarori chiqarilgan tarafning vakolatli sudga murojaat qilib, qarorni majburiy ijroga qaratish orqali amalga oshiriladi.

Agar taraflardan biri hakamlik sudining hal qiluv qaroridan norozi bo'lsa, vakolatli sudga ushbu hal qiluv qarorini bekor qilishni so'rab ariza

berish yo'li bilan nizolashishi mumkin.

Bu afzalliklar tadbirkorlar, ayniqsa, kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun muhimdir. Hakamlik sudlari, nizolarni hal qilishning muqobil usullari davlat uchun ham juda muhimdir. Bu to'g'risida Prezidentimizning 2020-yil 17-iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilingan bo'lib, unda ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligi ilgari surilgan.

Bu usuldan hozirgi kunda dunyoning rivojlangan barcha mamlakatlari foydalaniladi. Vaholanki, jahon tajribasi nizolarni hal qilishning muqobil usullari va hakamlik sudlari xorijda ancha mashhurligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, AQShda da'volarning aksariyati sudga ko'rib chiqishdan oldin yarashtirish (kelishtirish) amallari bilan hal qilinadi. Xitoy va Yaponiyada kelishtirish amallari azaldan konfutsiycha axloq modelining tabiiy qismidir. Arab mamlakatlari o'z tizimlarini tuzish chog'ida hakamlik sudini asos sifatida qabul qilganlar.

Tarixning guvohlik berishicha, Movarounnahrda nomi chiqqan faqihlarning aksariyati hakamlik bilan shug'ullangan. Buning isboti tariqasida Abu Nasr Samarqandiyning “Rusum-ul quzot” asaridan iqtibos keltirishimiz mumkin. Unda aytilishicha: “Hakam ikki nizolashuvchi orasida hukm ijro etmaydi, balki ularni kelishtirib qo'yadi”.

Munisa SHODMONOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

❏ SABOQ

Yo'qolgan soat



Bir, kishi 48 yil avvalgi boshlang'ich sinf o'qituvchisini xiyobonda ko'rib qolib, xijolatlik bilan yoniga borib: “Ustoz, meni tanidingizmi?” dedi.

– Yo'q, taniyolmadim, – dedi keksa muallim.

– Men boshlang'ich sinfdagi o'quvchingiz fa-lonchi bo'laman. Ustoz, sinfdosh o'rtog'imizning soati yo'qolgandi. Men olgandim. Siz “hamma joyidan tursin va qo'llarini taxtaga tirsin, tintuv qilaman” dedingiz. Men uyaldim va qattiq qo'rqdim. Siz va o'rtog'larimning yuziga qanday qarayman, deb o'ylaganim sari badanimdan muzday ter quyilardi. Shu payt siz yana bir buyruq berdingiz: “Endi hamma ko'zlarini yumsin!”

Safning o'rtaroqlarida edim. Tintuv navbati menga keldi. Soatni indamay cho'ntagimdan oldingiz va tintuvni safdagi so'nggi bolagacha izlashtirdingiz. Keyin bizni o'rimizga o'tqazib, menga ham, boshqalarga ham hech narsa demasdan soatni egasiga qaytardingiz.

Ulg'ayganim sari bu ishingiz qalbimda katarib boraverdi. Ustoz, men hozir oltmish yosh-daman. Bu hayotdagi eng katta saboqni o'sha kuni. Sizdan olgandim. Har gal eslaganimda bir

seskanib ketardim va o'zimni Sizdan qolgan marhamat va bag'rikenglik bag'rida his etardim. O'zingdan, vijdoningdan uyaliy yashash azob, undan-da dahshatli azob esa uyaliyotganing-ni boshqalar ham bilishi, ularni har ko'rganingda xijolat bo'lishing undan ham dahshatli azob.

Ustoz, Siz menga hammadan uyaliy yashash azobini ravo ko'rmadingiz. Bu azobni his qil-ganimda unuta olarmidim, bilmayman to'g'ri-si. Lekin meni uyaltirmaganingizni hech qachon unutmadim, ustoz!

Keks a o'qituvchi o'ringda yonma-yon o'tir-gan sobiq o'quvchisiga o'g'irilib qaradi:

– U voqeani ertasi kuniyoq unutib yuborgan-dim. Hozir sen aytganingda esladim.

Sizlarga ko'zlaringizni yuming deganimda men ham ko'zlarimni yumgandim. Shu yoshdagi har bir bola qo'l urishi mumkin bo'lgan yanglish-ga qo'l urgan o'quvchimga nisbatan ko'nglimda yomon o'y tushmasin degandim. U senmiding? Bilmasdim...

Umida AZIZ tarjimai

8 BUGUNNING GAPI

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida "Moziy"ga qaytib ish ko'rish xayrlik, deyildilar. Shunga ko'ra mavzu-ni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi "xon zamonlari"dan belguladim..." degan muqaddimani barchamiz yod bilamiz.

Asarni har gal o'qiganda razolat va qabohat soya solgan, xazon qilgan ulkan muhabbat – Otabek va Kumush muhabbatining fojiali yakun topishidan aziyat chekamiz, zamona taloto'plari davrning jarohatlarini chuqurlashtiradigan og'riqlarni his etamiz.

Romanning bosh qahramoni Otabek 24 yoshda, Toshkent hokimining maslahatchisi Yusufbek hojining yakkayu' yagona o'g'li. O'ziga yarasha obro'-e'tiborga, nufuzga ega bo'lgan bu oilaning o'ziga yarasha kamchiliklari ham bor.

– O'g'lim, hali sen eshitdingmi, yo'qmi, haytovur biz sening ustingdan bir ish qilib qo'ydik...

Otabek "bu ishini" bilib tursa ham, o'zini bilmaganga soldi:

– Aqlli kishilarning o'g'illari us-tidan qilgan ishlari, albatta, noma'qul bo'lmas.

– Biz sening uchun Olim ponsad-boshining qiziga unashib qo'ydik...

Xasanalining so'ziga qaraganda, qayinotang qizini Toshkentga yubor-mas ekan... deya o'g'lini Toshkentdan ikkinchi bor uning rozilgisiz uylantir-gan Yusufbek hojining bu qarori tu-zatib bo'lmas xato ekanligini asar ox-iridagi achchiq alamli faryodda ko'rish mumkin. Kumushning kundoshi Zay-nab solgan zaharni ichishi barcha or-zu-umidlarimizni, mehr va muhabbat haqidagi go'zal tasavvurlarimizni yer bilan yakson qilgani aniq.

Yozuvchi asarda Otabekning ikkin-chi bor uylanishiga ota-onasi bilan bir qatorda qaynotasi Mirzokarim quldir ham rozi bo'lganini garchi vaziyat va davr taqozosi deb tasvirlagan bo'lsa-da, lekin aslida bu bir illat ekanini asarning so'nggi faslida chuqur alam bilan ko'rsatib bera olgan. Shuning uchun ham Kumushning og'udan za-harlanishi va vafot etish sahnasini o'qish, filmda ko'rish juda og'ir.

HAMMANING BAXTLI BO'LISHGA HAQQI BOR, AMMO...

Millatimizda o'g'lini uylantirayot-ganda, qizini unashtirayotganda qiz yoki yigitning "Otasi bormi? Ota-onasi kim?" deb surishtirishdek yaxshi odat bor. Aksariyat hollarda bezori, mush-tumzo'r, tarbiyasiz o'smirning, axloqsiz, yengil hayot yo'llarini izlayotgan tan-tiq qizlarning boshida otasi bo'lmaydi. Aniqrog'i, ular amaldor yoki puldor-



BU mavzu o'ta shaxsiy va o'ta nozik mavzu ekanligini bilamiz. Ammo insonni aksariyat hollarda baxt deb, baxtsizlik sari yetak-layotgan, ko'ngil mulkiga ziyon yetkazayotgan, qalb shishasini sindirayotgan, eng achinarlisi, ma'naviyat degan katta kitobning sahifalariga qora chiziqli tortayotgan, davlatimiz va jamiyatimiz qonunlarini mensimayotgan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bu mavqe, bu maqom haqida ayrim bahsli mulo-hazalarimizni yozishga qaror qildik.



Arshni larzaga solmang, odamlar!

yoxud "ikkinchilar" haqida

ning ikkinchi xotini ("yolg'iz ona")dan tug'ilgan erkatoylar. "Ota"sining meh-riga emas, puliga ko'milib voyaga ye-tayotgan, ota tarbiyasini ko'rmagan, ko'ngliga nima kelsa shuni qilishga o'rgangan bunday o'g'il-qizlar afsus-ki anchagina. Bu bilan yolg'iz onalar-ga ta'na qilmoqchi emasmiz. Ham-maning baxtli bo'lishiga haqqi bor. Ammo... Baxt tushunchasini hamma har xil tushunadi. Bunga o'tmishda ham, bugungi kunda ham misollar ko'p. Boshqa-boshqa onadan tug'il-gan shahzodalarning toju taxt uchun talashib, bir-birining qonini to'kishi, saroydagi ayollarning bir-biriga dush-man bo'lib qolishi, bir-biridan qasos olishi haqidagi kartinalarni ko'rganda, bunga yana bir karra iqror bo'lamiz. Bunday misollar faqat kinoda emas, hayotda ham bor.

SINGLISINI O'LDIRGAN AKA

Mohira opa juda chiroyli ayol edi. U tadbirkorlik harakati boshlanmasdan ancha avval savdo-sotiqning hadisini olgan, ancha-muncha hisob-kitobni joyiga qo'ygan ishbilarmonlardan biri edi. Boylik ketidan quvib, boyvach-chaning tuzog'iga tushgan bu go'zal ayol oilasi, farzandlari borligiga qa-

ramasdan dong'i ketgan savdogar-lardan bo'lgan Bahrom akaning ikkin-chi xotiniga aylanadi. Ularni boylikka mehr birlashtirgani uchun o'rtadagi boyliklarini ko'paytirishga ahd qilish-di. Shu orada qiz farzandlik bo'lishdi. Unga gulning ismini qo'yishdi. Ammo oradan yillar o'tib ikkinchi xotinlik xan-jari begunoh gulini xazon qilishini xa-yoliga ham keltirmagan ayolga taqdir ayanchli qismatni ravo ko'rdi. Ikki shaharda yashayotgan ikki oila, ikki ayolning farzandlari bir-biriga dush-man bo'lib voyaga yetdi. Otasidan noroziligini qahrga aylantirgan, onasi-ga ko'rsatgan "hunar"lariga isyon qil-gan, unga yetkazgan ozorlarining qa-sosini begunoh qizdan – o'n sakkizga kirmagan o'gay singlisidan olgan aka panjara ortiga ketgani bilan hech nar-sani ortga qaytarib bo'lmaydi... Mohira opa ikkinchi xotinlik balosiga guldek qizini qurbon qildi, farzand dog'ida kuyib o'tdi.

OTASI TENGI ERKAKKA IKKINCHI XOTIN BO'LISH...

Bugungi kunda o'zidan 20-25 yosh katta bo'lgan oilali, nabirali erkak bi-lan noqonuniy xufiyona yashash, aniqrog'i, ikkinchi xotin bo'lish moda-

ga aylandi. Birovning hisobiga ya-shashning eng oson yo'li – otasi tengi puldor erkakni tuzaqqa ilintir-ish va undan farzand tug'ib olib, ke-yin unga "ishdan ketkizish", "xotiniga aytish", "sharmanda qilish", "sudga berish" kabi tahdidlar bilan o'z jirkanch "mavqe"ni mustahkamlab olayotgan ona suti og'zidan ketmagan ayrim or-siz, g'urursiz qizlarni ko'rib yoqa ush-laysiz. Barcha shart-sharoitlarga ega boshpana, mashina, keragidan ortiq pul talab qilayotgan "ikkinchilar"ning farzandlari ham hayotga, jamiyatga, atrofida qilarga boshqacha ko'z bilan qaraydigan xudbin odamga aylanib voyaga yetishi tabiiy. Chunki "Qush uyasida ko'rganini qiladi".

"Ikkinchi"ning dag'dag'asidan tiz-zasi qaltirayotgan, uyidan baraka-yu halovati, ish joyidan obro'si ketayot-gan, "ko'p xotinlik sunnat" deb iddao qilayotgan, o'zini shu bilan oqlayotgan, farzandi tengi beti qattiq, betamizning oldida past ketishga majbur bo'layot-gan, oqibatda insult yoki infarkt "ort-tirayotgan" erkaklar qonunlarni, jami-yatdagi axloq va odob normalarini qachongacha inkor etarkan?

Insonning e'tiqodi, g'ururi qadar ulug' bir tushuncha bor. Bu – Ado-lat! Xufiyona yashash esa hech qay-si adolat mezoniga to'g'ri kelmasligi oddiy haqiqat. Bu hech qaysi qonun-larimizda ham, muqaddas dinimizda ham yo'q. Xuddi ana shu illat, xuddi ana shu xiyonat tarbiyaviy, axloqiy, ij-timoiy, siyosiy yo'qotishlarning asosiy sababchisi. Zero, yaqin tariximizdagi amirlik va xonliklarning tanazzulga yuz tutishi sabablaridan biri ko'pxotinlik va bugungi davrdagi ishq romani bo'zi amaldorlarning xonavayron bo'lishi-ga, obro'sizlanishiga sababchi ekan-ligini juda yaxshi bilamiz.

Shu o'rinda diniy ulamolarimizga ham ayrim e'tirozlarimiz bor. To'g'ri, nikoh taraflarning ixtiyoriy ittifoqi, ix-tiyoriy bitimi. Ammo qonuniy niko-hi bo'lmaganlarning shar'iy nikohi-ni qayd etishga ruxsat berilmagan bo'lishiga qaramasdan, oila va nikoh masalasida hamon qonunni men-simaslik holatlariga duch kelayap-miz. Shar'iy nikoh soyasida "qurilgan" omonat oilalar sharhiga hojat bormi?

Rivoyat qilinishicha, "Bir oila buzil-sa, Arsh larzaga kelar ekan". Oila da-gan saodat qo'rg'oni ko'p hollarda xiyonat ortidan buzilmoqda Bu esa qonunlarimizga ham, qadriyatlarimizga ham ziddir. Arshni larzaga sol-maylik, odamlar!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muharir**
Asiddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqrib
qililmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashtirilgan tahririyati kompyuter ba-zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy
Tiraj: 3850
Buyurtma – 1282

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.
Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65
Bahosi kelishilgan narxda
1 2 3 4 5